

BACHADON BO'YNI EROZIYASI: ETIOLOGIYASI, TASHXISI VA DAVOLASH USULLARI

Bosimova Noila Ma'rifjon qizi

Majitova Dilxavas

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

I son Akusherlik va ginekologiya kafedrası

2-kurs klinik ordinatori

KIRISH. Bachadon bo'yni eroziyasi (servikal eroziya yoki ektopiya) reproduktiv yoshdagi ayollar orasida keng uchraydigan patologik holatlardan biridir. So'nggi yillarda ushbu kasallikning yoshlar orasida ko'payishi, shuningdek, inson papilloma virusi (HPV) bilan bog'liqligi uning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Bachadon bo'yni patologiyalari orasida eroziya ko'pincha fon kasallik sifatida uchrab, displaziya va servikal saraton rivojlanishiga zamin yaratishi mumkin.

ASOSIY QISM

Bachadon bo'yni eroziyasi ikki turga bo'linadi:

- Haqiqiy eroziya
- Soxta eroziya (ektopiya).

*Haqiqiy eroziya ko'p qavatli yassi epiteliy qoplamining shikastlanishi bilan xarakterlanadi.

*Soxta eroziyada esa silindrsimon epiteliy tashqi bachadon bo'yni qismiga siljiydi.

Etiologik omillar qatoriga:

- Gormonal disbalans
- Jinsiy yo'l bilan yuqadigan infeksiyalar
- HPV infeksiyasi
- Tug'ruq va abortdan keyingi travmatik omillar





- Erta jinsiy hayot boshlanishi kiradi.

Klinik jihatdan kasallik ko'pchilik hollarda simptomsiz kechadi. Ba'zi bemorlarda:

- kontaktli qon ketish
- patologik ajralmalar
- jinsiy aloqada og'riq kuzatilishi mumkin.

Tashxis qo'yishda:

- * Ginekologik ko'rik
- * Kengaytirilgan kolposkopiya
- * Sitologik surtma (PAP-test)
- * HPV testi
- * zarurat bo'lsa biopsiya muhim ahamiyatga ega.

Davolash taktikasi :

- Bemorning yoshi
- Reproduktiv rejasi
- Patologiyaning turiga qarab belgilanadi.

Konservativ davoga :

- Yallig'lanishga qarshi
- Antiseptik preparatlar
- Gormonal preparatlar kiradi.

Destruktiv usullar sifatida :

- * Diatermokoagulyatsiya
- * Kriodestruksiya
- * Lazer terapiya
- * Radio-to'lqinli usullar qo'llaniladi.

Zamonaviy amaliyotda radio-to'lqinli va lazer usullari minimal invazivligi va asoratlar kamligi bilan ustunlik qiladi.

XULOSA. Bachadon bo'yni eroziyasi ayollar reproduktiv salomatligiga ta'sir qiluvchi muhim patologiyalardan biridir. Kasallikning erta tashxisi va to'g'ri davosi servikal displaziya hamda onkologik jarayonlarning oldini olishda muhim

ahamiyat kasb etadi. Profilaktika maqsadida muntazam ginekologik ko'rik va skrining tekshiruvlari o'tkazish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi SSV klinik protokollari, 2023.
2. WHO guidelines for screening and treatment of precancerous lesions for cervical cancer prevention, 2021.
3. Савельева Г.М. Гинекология. Москва, 2020.
4. Novak's Gynecology, 16th edition, 2020.

